

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI	23-28

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI	35-44

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	59-64

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)	80-86

<i>Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi</i> XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI QIYOSIY O'RGANISH	87-91
--	-------

<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna</i> J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	92-96
---	-------

<i>Miraxmedova Zilola Erkinovna</i> EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI	97-101
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Абдуолимов Уринбой Худобердиевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ	102-110
--	---------

<i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ	111-119
---	---------

<i>Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li</i> OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)	120-124
--	---------

<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT	125-135
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Rashidova Oynisa Xusniddin qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	136-140
--	---------

<i>Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi</i> DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH	141-146
---	---------

<i>Ганнаров Захид Ганнарович</i> ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ синхронизации движений в синхронном ПЛАВАНИИ	147-153
---	---------

<i>Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna</i> TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI	154-159
---	---------

Received: 10 July 2024
Accepted: 15 July 2024
Published: 25 July 2024

Article / Original Paper

NATIONAL-LINGUISTIC SIGNS OF AGORONIM AS AN ONOMASTIC CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Nigina Akmalovna Khikmatova

Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the Department of Foreign Languages

Abstract. This article provides analysis and research of agoronyms from lexical-semantic, grammatical, etymological and linguopoetic points of view. In particular, it is worth noting that they become an agoropoetonym to define their place in the artistic text and their various tasks in illuminating the artistic goal of the creator. In this way, it becomes possible to widely show the possibilities of these onomastic units in language and speech.

Key words: agoropoetonym, onomastics

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI

Hikmatova Nigina Akmalovna

Buxoro davlat pedagogika institute, Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada agoronimlarni leksik-semantik, grammatik, etimologik va lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq qilish ko'zda tutilgan. Ayniqsa, ularning badiiy matndagi o'rni, ijodkor badiiy maqsadini yoritishdagi turli vazifalarini aniqlash uchun agoropoetonim bo'lib kelishi alohida diqqatni tortadi. Shu orqali bu onomastik birliklarning til va nutqdagi imkoniyatlarini keng ko'rsatib berish imkoni paydo bo'ladi.

Kalit so'zlar: agoropoetonim, onomastika,

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N11>

Kirish. Bozor, maydon, bog' nomlari tilshunoslikning atoqli otlar haqidagi bo'limi – onomastikada o'rganiladi. Onomastikaning bu qismi *agoronimiya* deb ataladi. Shahar ichidagi maydonlarning va bozorlarning nomlari *agoronimlar* termini bilan yuritiladi. Avvalo, "agoronim" atamasining paydo bo'lishi qiziqtiradi. Bu atama ilk bor N.V.Podolskayaning "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati" (1978) da qo'llanilgan bo'lib, shahar ichidagi maydonlarning va bozorlarning nomini anglatadi. Ular maydon va bozor nomlarining toponomik xususiyati bilan shug'ullanadi.

"Agoronim" atamasi yunoncha *Thorá* "maydon" + *μoma* "ism ma'nolarini anglatadi. O'zbekistonda "Mustaqillik maydoni", Moskvada "Qizil maydon", Venada "Avstriya maydoni" shunday mashhur agoronimlarga misol bo'la oladi.

Tilshunoslikda agoronimlarni o'rganuvchi bo'lim "agoronimiya" deb yuritiladi.

"Maydon" so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da quyidagicha ta'rif berilgan:

I. "Maydon" forscha – ochiq joy, sayhonlik, dala degan ma'nolarni anglatadi.

1. Hovli-joyga yaqin ochiq er, sayhon yoki bog'cha; tomorqa. Bu so'z o'zbek adibi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida shu ma'noda quyidagicha qo'llangan: "Maydon ikki tanob kenglikda bo'lib, janubi qutidor va qo'shnisining imoratlari orqasidan va boshqa uch jihati ham shunga o'xshash binolardan iborat edi".

2. Umuman, ochiq yer, sayhon yoki ekinzor. Paxta maydoni. Ekin maydoni ma'nosida. Masalan: "Ilg'or xo'jaliklarning chigit ekilgan maydonlari yashil libosga burkandi".

3. Biror ish-harakat, tadbir uchun mo'ljallangan yoki shunday ish-harakat yuz beradigan, bajariladigan joy. Sport maydoni. Mashq maydoni. Kurash maydoni. Jang maydoni kabi. Masalan, o'zbek xalq maqollarining birida shunday deyiladi: "Mard maydonda bilinar". Yoki Sadriddin Ayniyning "Qullar" romanida shunday parcha uchraydi: "Amir engildi, askarlari buzilib, urush maydonidan qochdilar".

Komil Yashinning "Hamza" romanida shunday deyilgan: "Ayniqsa, uloq bo'layotgan maydonda tumonat odam".

4. "Maydon" so'zi ko'chma ma'noda ham qo'llanadi. Bunda u "jabha", "soha", "doira" ma'nolarida ishlatiladi. Bunga ish maydoni, mafkura maydoni kabi birikmalar misol bo'ladi. Masalan: "Men qirq yildan buyon adabiyot maydonida qalam tebratib kelyapman" degan edi taniqli adib va shoir Oybek, "Xalqqa xizmat – baxt" maqolasida.

5. "Maydon" so'zi fizik atama sifatida ham qo'llanib keladi. Bunda u "biror fizik hodisa ro'y beradigan yoki uning ta'siri seziladigan fazo" tushunchasini anglatib, "elektr maydoni", "magnit maydoni" birikmalari tarkibida keladi.

II. "Maydon" so'zini maydonga kelmoq, yuzaga kelmoq, paydo bo'lmoq, tug'ilmoq ma'nolarida ham uchratish mumkin. Masalan, maydonga tashlamoq (yoki otmoq), shior, fikr, mulohaza va shu kabilarni o'rtaga tashlamoq kabi.

Maydonga chiqmoq 1) maydonga kelmoq; 2) yuzaga chiqmoq, amalga oshmoq; 3) bosilib chiqmoq, nashr etilmoq (maqola, kitob va sh. k. haqida).

Biz hozirgi kunda Buxorodagi Ark oldidagi Registon maydoni, Mustaqillik maydoni, Ko'hna va boqiy Buxoro monumenti, Abu Ali ibn Sino nomidagi favvoralar maydoni, Kogon shahridagi temiryo'l vokzali oldidagi yo'lovchilar xiyobonini, Bahouddin Naqshband majmuasi, shahar qadimiy darvozalar oldidagi maydonlar nomini ko'p eshitamiz.

Muhokama. Ingliz tilida "maydon" so'zining bir necha muqobili mavjud. Bulaar quyidaagilaardan iborat:

1. *area* – maydon;
2. *field* – maydon, dala, faoliyat sohasi;
3. *space* – oraliq, koinot, maydon, fazo, masofa;
4. *square* – kvadrat, maydon, to'g'ri to'rtburchak;
5. *arena* – maydon;
6. *territory* – territoriya, maydon
7. *terrain* – maydon, joy, yer, sahn;
8. *estate* – mol-mulk, jamiyatda tutgan o'rin, maydon.

Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada va Avstraliyada joylashgan ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan maydonlar nomi mashhurdir. Aytaylik, Angliya poytaxti Londonda 26 ta xiyobon va 16 ta park mavjud. Ulardan eng mashhuri – Trafalgar maydoni. Bu Londondagi eng katta majmua hisoblanib, "shaharning yuragi" deb ataladi. Ushbu maydon tarixiy bino va yodgorliklar, haykallar va gallereyadan iborat eng diqqatga sazovor joydir. Trafalgar nomi Lord Nelsonning 1805-yilda

Trafalgardagi urushda g'alabasi sharafiga qo'yilgan. Shuningdek, Gayd-park, Qirollik botanika bog'i, Parlament maydoni, Tover ko'prigi, Kovent bog'i kabi agoronimlarni ko'plab misol keltirish mumkin[1].

Britaniyalik mashhur yozuvchi Sebastian Faulksning 2009-yilda chop etilgan "Dekabrning "Bir haftasi" nomli asarida voqealar Londonda sodir bo'ladi. London toponimidan foydalanish o'quvchining ushbu shahar haqidagi asosiy bilimlariga murojaat qiladi, uning surati gavdalanadi, mashhur madaniyati ko'z oldida gavdalanadi. "Dekabrning bir haftasi" romanida London toponimi unchalik ham takror-takror qo'llanilmaydi. Biroq asarda nafaqat londonliklar uchun tanish bo'lgan, balki butun dunyoga mashhur urbanonimlar ishtirok etgan. J. Lanchesterning "Poytaxt" nomli asari, Z. Smit "Oq tishlar", R.Rendellning "Portobello" kabi asarlarida ham London voqealar sodir bo'ladigan joy sifatida tanlangan. "Dekabrning bir haftasi" romanidagi mikrotoponimlar orasida keng tarqalgan nomlardan: Chelsi, Vestminster cherkovi, Tube, Tover, The Eye, Bakingham saroyi, Dauning ko'chasi, King's Cross - va londonliklar tomonidan tanilgan joy nomlari, lekin boshqa kitobxonlar uchun unchalik ma'lum bo'lmagan: Boleyn graund, Viktoriya bekatii, Shimoliy dumaloq, Havering-atte-Bower, Drayton yashil, Linkolns Inn, Inner Temple. Bunday urbanonimlar voqelikni ifodalaydi. Xayoliy urbanonimlar (asosan agoronimlar - tijoriy xususiyatga nomlar: Shilds De Witt, Corkscrew, Snoozetime Pet's Rest) ushbu romanda faqat badiiy asarning shaharning ko'rki sifatidagina emas, muallifning ushbu joylarga nisbatan qarashlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, neologizmlar o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlardir. Neologizmlar (yun. neos – yangi, logos – so'z) – jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o'tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. O'zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan *marketing*, qayta qurish, reyting, tender so'zlari hozirgi kunda umumiste'moldagi so'zlarga aylandi..

O'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan maydonga oid so'zlar izohi, ishlatilishi, o'xshash va farqli jihati, talaffuzi o'ziga xosdir. Masalan, skver so'zini oladigan bo'lsak, ushbu so'zga – [ingl. square to'rtburchak maydon] – xiyobon izohi keltiriladi.

"Skver" so'zi o'zbek tiliga ham o'zlashgan. Masalan, Pirimqul Qodirovning "Uch ildiz" romanida bu so'z quyidagicha ishlatilgan: "Skver tomondan oqib tushgan bahor suvi trotuarning zihida ko'plab yotar, o'sha yoqdan kelgan kishilarning loy izlari asfaltga muhrday bosilib, qurib qolgan edi".

Skver (inglizcha kvadrat) – turar-joy yoki sanoat binolari ichida obodonlashtirilgan va yashil maydon. Skver – bu 0,15-2 gektar maydonni ifodalovchi shaharni ko'kalamzorlashtirish ob'ekti; odatda, kvadrat, ko'cha chorrahasida yoki ko'chaga ulashgan blok blokida joylashgan. Maydonning tartibiga yo'llar, o'yin maydonchalari, maysazorlar, gulzorlar, alohida daraxtlar guruhlar, butalar kiradi. Piyodalar uchun qisqa muddatli dam olish uchun mo'ljallangan; me'moriy ansamblni bezatish. Ko'pgina hollarda, maydonning maydoni 2 gektardan oshmaydi, ammo juda katta o'lchamdagi kvadratchalar ham mavjud.

Hozirgi zamonda faol qo'llaniladigan maydonlar haqida fikr yuritsak, sport komplekslari, zamonaviy xiyobonlar, Toshkentdagi Islom Karimov nomidagi Oqsaroy majmuasi, Mustaqillik maydoni, Hindistonning sobiq bosh vaziri Lal Bahodur Shastri xotirasiga bag'ishlangan byusti, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i, Shahidlar xotirasi yodgorlik majmui va boshqa tarixiy maydonlar nomi ancha mashhurdir. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi

Prezidenti nomidagi Oqsaroy majmuasi 9,6 gektarga yaqin maydonni egallaydi. Maydonda to'rtta bino — "Oqsaroy", "Ko'rgazmalar zali", "Kutubxona", "Majmua ofislari" va bitta kafeteriy joylashgan[2].

O'zbekistonda og'zaki nutqda faol ishlatiladigan maydonlar: paxta maydoni, bog'dorchilik, poliz ekinlari, sholizor, uzumzor.

Cho'l zonasidagi noyob yovvoyi hayvonlar yashashi uchun mo'ljallangan ko'l zonalar: Moxonko'l maydoni, Navoiy viloyatiga qarashli Quymozor suv ombori, To'dako'l maydonlari va boshqa ko'llar.

Bozor – eng keng tarqalgan agoronimlardan biridir. U forscha so'zdan olingan bo'lib "savdo rastasi" ma'nosini anglatadi[3].

1). "Bozor" deganda, "aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy, maydon" tushuniladi. Bu so'z tilimizda faol ishlatiladi. Uni xalq maqollari tarkibida ham uchratish mumkin: .

Otang – bozor, onang – bozor. (Maqol).

Aql bozorda sotilmas. (Maqol).

Natijalar. Shuningdek, "bozor" so'zi badiiy asarlarda, adabiy tanqidchilikka oid maqolalarda ham ko'p ishlatiladi. Masalan, adabiyotshunos Umarali Normatov "Talant tarbiyasi" maqolasida: "Yurt boy bo'lsa, uning bozori ham to'kin bo'ladi" deb yozgan bo'lsa, adib Said Ahmad "Ufq" romanida "Bir aylanib kelay, deb Quva bozoriga chiqdim" deb yozgan.

Nutqimizda "bozor qilmoq" birikmasi, birinchidan, "bozordan u-bu narsalar olmoq, xarid qilmoq, xarj qilmoq" ma'nosida (masalan, "Siddiqa bozor qilgani ketdi. (S. Zunnunova, Ko'zlar); "Nusratbek ikki kun ertalab o'zi bilan to'rva olib ketib, ishdan keyin bozor qilib keldi. (S.Nurov, Maysalarni ayozi urmaydi); ikkinchidan, "shovqin-suron qilmoq, to'polon ko'tarmoq" ma'nosida (masalan: "Oyda, yilda bir bozor, uniyam yomg'ir buzar. (maqol); "Bugun bozor bo'lgani uchun Yodgor kech uyg'ondi. (O'.Hoshimov, "Qalbingga quloq sol"); "Qo'yavering, bugun bozor-ku, birpas dam olsinlar. (O'.Hoshimov, "Qalbingga quloq sol") qo'llaniladi.

"Bozor kuni" birikmasi – bozor ma'nosida qo'llanadi. Masalan: "Bozor kuni, odam qalin" (Oybek, Tanlangan asarlar).

"Bozor ko'tarmaydi" birikmasi, birinchidan "bu narxga bozorda hech kim olmaydi"; ikkinchidan, ko'chma ma'noda " boshqalarga yoqmaydi, hech kim tinglamaydi" ma'nosida ishlatiladi. Masalan, "...ishxonalarda, –ayniqsa, ko'pchilik bilan muomala qilinadigan joylarda ..dag'allik va avozchiliklarni bozor ko'tarmaydi. (T.Alimov, "Iljaying, asakangiz ketmaydi").

Bozor non(i) – sotish uchun tayyorlanadigan maxsus non navidir. Masalan: "Hayal o'tmay, bir choynakda ko'k choy, siri ko'chgan patnisda to'rtta bozor noni ko'tarib keldi Quadrat". (M. Ismoilov, "Farg'ona tong otg'un" a" romanidan).

"Bozor qaytdi" birikmasi bozor vaqti tamom bo'lib, bozorchilar qaytadigan vaqt tushunchasini bildirib kelsa, "bozorga solmoq" birikmasi, birinchidan, "molni sotish uchun bozorga olib kirmoq, xaridga qo'ymoq" ma'nosini anglatadi. (Gajdumbek bozorga borsa, Hamza bir qulni bozorga solib turibdi. ("Go'ro'g'li"). Yoki: "Erta barcha xaloyiqlar keladi, Quli, cho'risini bozor soladi. ("Nurali").

Ikkinchidan, "bozorga solmoq" iborasi ko'chma ma'noda "diqqatni jalb qilish uchun biror narsani ko'z-ko'z qilmoq, aylantirib, ko'rsatib yurmoq" ma'nosini anglatishga xizmat qiladi. ("Bozor qizigandan keyin, otni minib, u yoq, bu yoqqa chopib, qamchilab, sakratib o'ynatib, bozorga sola berdi". ("Hasanxon"). Yoki yana: "O'z ishini bitirish uchun tuyg'ularini bozorga solishdan toymaydi". (S. Karomatov, "Oltin qum").

“Bozori chaqqon” iborasi ham ikki ma’noda qo’llanadi: 1) xaridori ko’p bo’lgan, tez o’tadigan mol, narsa haqida. (“Marg’ilonda gazmol bilan poyabzalning bozori chaqqon, – dedi Homid”. (A. Qodiriy, “O’tkan kunlar”). Yoki: “Turkistonda o’rik bozori chaqqon ekan, sotib kelay”, deb bahona qildim”. (S. Siyoyev, “Yorug’lik”). 2. Ko’chma ma’noda ehtiyoj katta, talabgorlari ko’p bo’lgan degan tushunchalarni anglatib keladi. (“Imomlikning bozori chaqqon bo’lib ketganidan bizga o’xshash o’rtacha ahli ilmlarga shafqat ko’zi bilan boquvchi bo’lmay.. qolgan edi. (G’ayraty, “Dovdirash”). Yana: “Tabibning bozori chaqqon, hovlisida kamdan-kam bo’lar ekan. (Mirmuhsin, “Me’mor”).

“Bozori o’tmadi” iborasi ham ikki ma’noda ishlatiladi: 1) bozorda o’tmay, sotilmay qoldi; 2) ko’chma ma’noda o’ziga yoki gapiga tarafdor chiqmadi; nomeri, hiylanayrangi o’tmadi.

“Bozor(ini) olmoq” yoki *“bozor qilmoq”* iboralari bozorga borib, savdo-sotiq ishlarini bitirib kelmoq tushunchalarini anglatadi. Masalaan: “Bozoringni o’zing qil, tegirmoningni o’zing tort!” (Maqol). Yoki G’G’ulomning “SHum bola” qissasida shunday parcha uchraydi: “Kech bilan bozorni olib, somon sotib qaytgan tuyachining tuyasiga ikkita-ikkita mingashib, chopon bozorga qarab yo’l soldik”.

“Bozorga solmoq” iborasi salbiy ma’noda “o’zini elga ko’z-ko’z qilmoq” tushunchasida qo’llanadi: “Agar sevgining nimaligini bilsangiz, yuzingizdagi pardani yirtib tashlab, o’zingizni bozorga solib o’tirmas edingiz, Jo’raxon! (Mirzakalon Ismoilining “Farg’ona tong otguncha” romanidan).

“Alpomish” dostonidan:

Lof urib, o’zini bozor solarmi?

Lof bilan qo’lidan bir gap kelarmi?

Bozor ko’chma ma’noda g’ala-g’ovur, chug’ur-chug’ur, shovqin-suron, sho’xlik holati kabi tushunchalarni ham anglatishga xizmat qilaadi. Masalan, “Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor. (Maqol).

Yoki: “Bugun dala shiyponida bozor bo’ldi. Hamma sizdan darg’azab, raislikdan tushirmoqchilar. (Sh.Rashidovning “Bo’rondan kuchli” romanidan).

Yana: “Munira tug’ruqxonadan chiqqan kuni uy bozor bo’lib ketdi. (Farhod Musajonovning “Himmat” asaridan).

“Tong yorishib, gujumlarda qushlar bozori boshlangan edi. (S. Siyoyevning “Yorug’lik” asaridan).

Iqtisodiyotda bozor sotuvchilar bilan xaridorlar o’rtasidagi tovar ayirboshlash munosabatlarini ifodalashda haam “bozor” so’zidan foydalaniladi: jahon bozori, tashqi bozor, ichki bozor, bozor islohotlari kabi. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasida *“bozor xo’jaligi”* birikmasi orqali bozor ishtirokchilarining tovar va xizmatlarni pul vositasida ayirboshlash yuzasidan munosabatlarga kirishishi tushunilishi ta’kidlangan. Masalan: “Dunyo bozorida terilarimizning narxi tushmasa deymen. (S. Ahmad, “Yulduz”)[4].

“Bozor iqtisodiyoti” deganda, tovar-pul munosabatlariga asoslangan, turli mulkchilikka hamda iqtisodiy erkinlikka tayangan va raqobat asosida tartibga solib turiladigan demokratik iqtisodiyot tushuniladi.

“Bozor muvozanati” birikmasi ostida bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkib jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi anglashiladi.

“Bozor” so’zi ko’chma ma’noda taqdir, qismat tushunchalarini ifodalab keladi. Jumladan: “Izinda jo’rasi ko’rmakka zordir, Ma’shuqlik deganing qiziq bozordir. («Qo’shiqlardan»).

“Qurilganda ishq savdoning bozori, o’ynab-kulib shu kun tursa dildori. («Erali va Sherali»

dostonidan). Bozor soʻz koʻchma maʼnoda biror harakat yoki faoliyatning haddan oshishi, avjiga chiqishi, qizishi, oʻlim bozori (urush) maʼnolarida ham ishlatiladi. Xalq tilida “gap bozori” birikmasi ham keng uchraydi. Masalan: “Feruza bilan Norqoʻzining toʻyi ovoza boʻlgandan beri «Mehnat – rohat» Qizlarining **gap bozori** qizidi. (H. Gʻulom, “Senga intilaman”).

Yoki yana: “Xuroson mamlakatida **oʻlimning bozori** qizib, xarob boʻlgan binolar ustida boyqushlar sayrashga kirishdi. (M. Osim, “Ajdodlarimiz qissasi”); “**Ajalning bozori** shunday qizidi, Qizil qonga tulpor otlar toʻzidi. (Ergash Jumanbulbul oʻgʻli); “Bazmi jamshidlarda, koʻnglim tilamagan davralarda, **safsata bozorlarida** kunlarim tamaki tutuniday koʻkka uchdi. (X. Sultonov, “Onamning yurti”)[5].

Bozor, Bozorxon, Bozorboy, Bozorgul sifatida erkaklar va ayollar ismi – antroponim ham boʻlib keladi.

Xulosa. Umumiy qilib aytgandaa, “bozor” – 1) sotuvchilar bilan haridorlar oʻrtasidagi tovar ayirboshlash munosabatlari; ishlab chiqarish bilan isteʼmolni oʻzaro bogʻlovchi mexanizm. Bozor obʼekti nafligi bor tovar va xizmatlar, subyekti esa bozor ishtirokchilari (sotuvchi va xaridorlar) boʻlib, ular firmalar, uy xoʻjaliklari, davlatning tashkilot, idoralari va boshqalardan iborat. Bozor ishtirokchilari tovar va xizmatlarni pul vositasida ayirboshlash yuzasidan munosabatlarga kirishadilar. Bozorda tovarlar bilan oldi-sotdi munosabatlari tovar ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash va pul muomalasi qonunlariga binoan amalga oshiriladi. Bozor ishtirokchilari sotuvchi hamda xaridor maqomiga ega boʻladilar. Bozorda ikki jarayon amalga oshadi: biri – tovarlarni sotish, bunda tovar pulga almashadi, yaʼni tovar – pul; ikkinchisi – tovarni xarid etish, pulni tovarga ayirboshlash, yaʼni pul – tovar. Ayirboshlash ixtiyoriy va erkin shakllangan narxlarda olib boriladi. Bozor iqtisodiyotda ishlab chiqarishni isteʼmol bilan bogʻlash (yaratilgan tovarlar va xizmatlar bozorga chiqadi, u erda sotilgach, isteʼmolga kelib tushadi); kiymatni tovar shaklidan pul shakliga aylantirish; ishlab chiqarishning uzluksizligini taʼminlash (yaratilgan tovarlar va xizmatlar bozorda sotilgach, tushgan pulga ishlab chiqarish uchun zarur iqtisodiy resurslar, chunonchi, asbob-uskunalar, mashinalar, yoqilgʻi, ish kuchi sotib olinib, ishlab chiqarishni davom ettirish imkoniyati yaratiladi.); iqtisodiyotni tartiblash (nimani, qanday ishlab chiqarish, kim uchun ishlab chiqarish); mamlakatlar oʻrtasida iqtisodiy hamkorlik oʻrnatish singari vazifalarni bajaradi. Bunda talab va taklif, shunga muvofiknarliing oʻzgarishiga qarab ishlab chiqarish yuritiladi. Talab oshib, narx oʻssa, ishlab chiqarish koʻpayadi, aksincha, taklif oshib talab kamaysa, ishlab chiqarish qisqaradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Smit A.H. English Place-Names Elements. – Cambridge, 1956. – 163 r.
2. Doʻsimov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 104 b.
3. Karimova L. Oʻzbek tilida toponimlarning oʻrganilishi. – Toshkent: Fan, 1982. – 96 b.
4. Toʻxliiev N. Osiyo va bozor. – T., 1992
5. D.S.Urayeva, N.A.Hikmatova DERIVATIVES OF WORDS, WORD COMBINATIONS AND PHRASES WITH THE WORD "MARKET" IN THE UZBEK LANGUAGE, Journal of Central Asian Social Studies, 26-31

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).